

SIFATLI TA'LIM ASOSIDA INSON KAPITALINI KUCHAYTIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH.

Achilova Ramziya A'zamovna ¹

¹ Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya kafedrasi o'qituvchisi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:02.05.2025

Revised: 03.05.2025

Accepted:04.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

sifatli ta'lim, inson kapitali, kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiy o'sish, ta'lim siyosati, mehnat bozori, ijtimoiy barqarorlik, ta'limga investitsiya.

Ushbu maqolada sifatli ta'limning inson kapitalini rivojlantirishdagi roli hamda uning kambag'allikni qisqartirishga ta'siri tahlil qilingan. Muallif ta'limning iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikdagi ahamiyatini yoritib, zamonaviy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish orqali mehnat bozorida raqobatbardosh, bilimli va malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada ta'limga investitsiya kiritishning uzoq muddatli ijobiy natijalari va bu yo'nalishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari muhokama qilingan. Maqola ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlashda ta'limning o'rni va ahamiyatini ochib beradi.

KIRISH. Zamonaviy sharoitda O'zbekiston iqtisodiyatining raqobatbardosh afzalliklari va uni modernizatsiya qilish imkoniyati innovatsiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, asosan to'plangan va amalga oshirilgan inson kapitali bilan belgilanadi. SHu jihatdan bilimga asoslangan iqtisodiyatda barqaror iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va tabiiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan yuqori sifatli inson kapitalini yaratish juda muhimdir. Bu esa inson kapitali holatini o'rganishni, ham baholashni talab qiladi. Albatta, globallashtirish sharoitida yangilanish va yuksalishlar har bir sohada interatsiyalashuv, innovatsion tafakkurni va ularga asoslangan jamoaviy uyg'unlashuv hamda innovatsion muhitni talab etadi. SHu sababli ham davlatning innovatsion rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu inson kapitalini shakllantirish va takror ishlab chiqarish uchun maqbul sharoitlarni yaratishga

qaratilgan institutsional islohotlarning zarurligidir. Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda jamiyatning inson kapitalining o'sishi, asosan ilm-fan, ta'lim va sog'liqni saqlashning inson salohiyatini rivojlantiradigan yuqori texnologiyalarni yaratish ustuvor ahamiyatga ega. SHu sababli ham ushbu maqolada ta'lim klasterining inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil etiladi. Avvalo, inson kapitali nima? Inson kapitalini rivojlantirish nima uchun kerak? Uni rivojlantirishda ta'lim klasteri qanday ahamiyatga ega? kabi savollarga to'xtalib o'tamiz. Darhaqiqat, haèt rivojlanib borarkan, qadriyat ham takomillashib, mukammallashaveradi. SHu sababli davrlar silsilasida qadriyatlar shakli, xillari ma'lum bir ma'noda o'zgarib turishi mumkin. Ammo qadriyatlar borki ular shaklu-shamoyilini ham, mazmun-mohiyati va qadr-qimmatini o'zgartirmaydi. Ularga ta'lim, bilim va ilm-fanni kiritish mumkin. Albatta, bilim hech bir boylikka sotib olinmaydigan, faqat o'rganish, intilish orqasidan keladigan katta xazina hisoblanadi. Endilikda bilim, ta'lim qiymati "inson kapitali" atamasi bilan atalib kelinadi. SHu vaqtga qadar adabietlarda inson kapitali tushunchasi asosan birèqlama, ya'ni inson kapitali insonning o'ziga bevosita keladigan foyda èki shaxsni ijtimoiy himoyalash imkoniyati sifatida tushinib kelindi. Inson kapitali orqali faqat birgina insonning o'ziga emas, balki boshqalarga ham naf keltirishi mumkin. Bu esa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshirilishi zarur. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifati va oliy ta'limga qamrov darajasini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida shakllantirish, uzluksiz o'qitishning jozibador tizimini yaratish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va izchil fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, intellektual qobiliyatini namoyon etishga qodir bo'lgan ma'naviy barkamol avlodni voyaga etkazish O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining asosiy strategik maqsadlari hisoblanadi. Sifatli ta'lim inson kapitalini rivojlantirishning muhim omilidir. SHu bois, o'z kelajagani o'ylagan har bir davlat, har bir millat yosh avlodga jahon andozalari darajasida ta'lim berish, navqiron avlodni ma'nan etuk, jismonan barkamol etib voyaga etkazishga ustuvor ahamiyat beradi. Uchinchi renessans poydevorini yaratish yo'lidan dadil odimlayotgan Yangi O'zbekistonda bu boradagi islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. So'nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi va oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilm-fanni rivojlantirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrov keskin ko'paydi. Maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichi oshdi. Ta'lim, ilm-fan tizimida erishilayotgan yutuqlar mamlakatimizning xalqaro

reytinglarda o'rnini yanada yaxshilash imkonini bermoqda. Xususan, 2020 yil Inson kamoloti indeksida O'zbekiston dunyoning 189 mamlakati ichida 106-o'rinni egalladi. Global raqobatbardoshlik indeksining ta'lim yo'nalishida O'zbekiston ko'rsatkichi 49,7 ballni tashkil etib, 131 ta mamlakat orasida 52-o'rinni egalladi. Kelajakda mehnat bozoridagi o'zgarishlar, yangi talab qilinadigan malakalar tufayli kasb-hunar ta'limi, o'qitish sohasidagi milliy siyosatni rejalashtirish va amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash har qachongidan ham dolzarb. Hozir rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 50 foizdan ortig'ini "bilimga asoslangan iqtisodiyot" tashkil qilyapti. U iqtisodiy o'sishning drayveri sifatida yuqori texnologiyali, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarmoqda va xizmatlar ko'rsatmoqda.

Jahon tajribasi oliy ma'lumotlilar ko'proq daromad topayotganini ko'rsatmoqda. Jumladan, YAngi Zelandiya Ta'lim vazirligi o'tkazgan tadqiqotga ko'ra, oliy ma'lumotlilar umumta'lim maktabi bitiruvchilariga qaraganda soatiga 7 dollar ko'p maosh oladi. AQSH Iqtisodiyot va statistika byurosi so'rovi natijalari esa o'rta ma'lumotlilar bilan solishtirganda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari 1,7 barobar, magistr darajasidagilar 2,1 barobar, falsafa doktori darajasiga egalar esa 3,1 barobar ko'p maosh olishini isbotladi.

Mamlakatimizda oliy ma'lumotlilarning mehnat bozoridagi ishtiroki va mobilligi yuqori bo'lib, ularning faol hayot davri odatda boshqalarnikiga qaraganda ko'proq davom etadi. SHu bois, oliy ta'limni va innovatsion rivojlanishni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. CHunki mamlakat farovon, adolatli va barqaror bo'lishi oliy ta'limning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik, intellektual infratuzilmaga aylanishini talab qiladi. Bu kelgusi o'n yillikda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun rahbar, o'qituvchi, tibbiyot xodimi, olim, tadqiqotchi va boshqa kadrlarning keyingi avlodini tarbiyalash uchun mas'ul ta'lim maskanlaridir. Yurtimizda har yili 600 mingdan ortiq yoshning mehnat bozoriga kirib kelishi uning profitsitini belgilaydi va aholining ish bilan bandligiga ko'maklashish, yangi ish joylari ochish, xalqaro standartlar asosida kasb-hunar va oliy ma'lumot bilan ta'minlash masalasini tobora dolzarb vazifaga aylantiradi. Oliy ma'lumotga ega bo'lishning yuqori darajasi mehnat bozorida barqarorlikni ta'minlashga, ishsizlik, tashqi mehnat migratsiyasi, norasmiy mehnat bilan bandlik, qonunbuzarlik va kambag'allik ko'lamini (O'zbekistonning kambag'allik ko'rsatkichida oliy ma'lumotga ega bo'lganlar ulushi 6,7 foizni tashkil qilgan) keskin kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Prezidentining joriy yil 7 martdagi "Oila va xotin-qizlar ni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi farmoni xotin-qizlarning yangi O'zbekistonni barpo etish

jarayoni va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, gender tenglikni ta'minlash, xususan, oliy ta'lim olishiga ko'maklashishda juda katta ahamiyatga ega.

Ushbu hujjatga ko'ra, 2022/2023 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan, sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta'lim kreditlari ajratiladi. SHuningdek, davlat oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari davlat byudjetidan qoplab beriladi. Har yili viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari ijtimoiy ehtiyojmand oilalarning 150 vakili, etim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini mahalliy byudjet hisobidan to'lab beradi. Davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta'lim muassasalari doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib borish, ularning bandligi, tadbirkorligiga ko'maklashish, kasbiy ko'nikmalarini oshirish, uy-joy bilan ta'minlashga kredit ajratish, boshqa ko'plab imtiyoz va chora-tadbirlar belgilangan. Xalqimizda farzandni o'qitish bilan bog'liq bir hikmat bor: o'g'il bolaga berilgan ta'lim bir odamni, qiz bolaga berilgan ta'lim esa butun xalqni savodli qiladi. Oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi, ta'lim sifatini oshirish orqali inson kapitalini rivojlantirish O'zbekistonning bilimga asoslangan iqtisodiyotni barpo etishida asosiy omildir. Oliy ta'lim muassasalari butun dunyoda nufuzli muassasa hisoblanib, bilimga asoslangan global iqtisodiyot uchun o'sishning asosiy dvigateli bo'lib xizmat qiladi. AQSHlik olim, iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha Nobel mukofotini olgan R. Lukasning fikricha, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining asosiy ko'rsatkichi sifatida mehnat unumdorligini oshirish, birinchi navbatda, jismoniy kapitalga emas, balki insonga yo'naltirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

Shaxsga investitsiya kiritish bilim, tajriba, ishlab chiqarish va boshqaruv ko'nikmalarini almashish, shuningdek, sinergik samara yaratib, oliy ta'lim va madaniyat standartlarini ishlab chiqish orqali xodimning va boshqalarning ham ish samaradorligini oshiradi. Oliy ta'lim bitiruvchilarni nafaqat karera uchun imkoniyat izlashda zarur bilim va ko'nikma bilan ta'minlaydi, balki hozirgi tez va shiddatli o'zgarayotgan sharoitda asoslangan qarorlar qabul qilish, ularning oqibatini tushunib etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. SHuningdek, bilimga asoslangan iqtisodiyotni qurish orqali rivojlanish imkonini beradi. Bilim va oliy ma'lumotga ega bo'lganlar soni oshishi jamiyatdagi tengsizlik va kambag'allikni kamaytirishga, ijtimoiy adolat o'rnatishga katta hissa qo'shadi. Hozir avvalgidек oliy ma'lumot olishning o'zi kifoya qilmaydi. Hatto magistr, falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) darajasi ham etarli emas. Endi har bir inson uzluksiz ta'lim olishi va malakasini oshirib borishi shart.

CHunki bu ko'nikmalar mazmuni doim o'zgarib turadi. Har qanday davlat va jamiyatning mushkul vaziyatdan xalos bo'lishi, yuksalishi va xalqi farovonligi bevosita sifatli ta'lim kafolatlangani hamda uning amalda ta'minlanishi bilan bog'liq. SHu o'rinda inson kapitali masalasiga milliy miqyosda e'tibor qaratish ham muammoni hal etishning samarali echimi bo'lishi shubhasiz. O'z davrida iqtisodiy va siyosiy jihatdan tang ahvolga tushgan YAponiya, Janubiy Koreya, Malayziya kabi davlatlar aynan sifatli ta'lim va inson kapitaliga etarli e'tibor qaratgani bois, vaziyatdan chiqishni uddalab, rivojlangani va farovon hayot tarziga erishgani amaliy misoldir. Aslida, sifatli ta'lim jarayonida inson, jamiyat va davlat manfaatlari uyg'unlashadi. YA'ni inson shaxs sifatida maydonga chiqadi. Bu degani, o'qitish jarayonida faoliyat yurituvchi mutaxassis sohasining butun sir-asrorini fidoyilik bilan mukammal o'zlashtiradi. O'zi ta'lim berayotgan yoki tarbiyalayotgan bola, o'quvchi yoki talabaga davlat va jamiyat boshqaruvi hamda xalq farovonligi uchun faol va ongli ishtirok muhimligini to'g'ri tushuntiradi. Zamonaviy sharoitda O'zbekiston iqtisodiyatining raqobatbardosh afzalliklari va uni modernizatsiya qilish imkoniyati innovatsiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, asosan to'plangan va amalga oshirilgan inson kapitali bilan belgilanadi. SHu jihatdan bilimga asoslangan iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va tabiiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan yuqori sifatli inson kapitalini yaratish juda muhimdir. Bu esa inson kapitali holatini o'rganishni, ham baholashni talab qiladi. Albatta, globallashtirish sharoitida yangilanish va yuksalishlar har bir sohada interatsiyalashuv, innovatsion tafakkurni va ularga asoslangan jamoaviy uyg'unlashuv hamda innovatsion muhitni talab etadi. SHu sababli ham davlatning innovatsion rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu inson kapitalini shakllantirish va takror ishlab chiqarish uchun maqbul sharoitlarni yaratishga qaratilgan institutsional islohotlarning zarurligidir. Ta'kidlash kerakki, ta'lim klasteri - asosan zanjir ichidagi gorizontal bog'lanishlarga asoslangan fan-texnologiya-biznes innovatsion zanjirida o'qitish, o'zaro o'rganish va o'z-o'zini o'rganish vositalari tizimi hisoblanadi. Bunday klasterlar "ta'limni yanada rag'batlantirish va sifatini sezilarli darajada oshirish va o'quv jaraeniga yangiliklarni kiritish qobiliyatiga ega". Darhaqiqat, ta'lim klasteri quyidagi xususiyatga ega - klasterning barcha sub'ektlari o'rtasida gorizontal bog'lanishlar va o'zaro ta'sirlarning mavjudligi. Umuman olganda, ilm-fan va ta'limning integratsiyasi ilmiy tadqiqot faoliyatini ta'lim jaraeni bilan birlashtirish orqali ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilaydi; innovatsion faoliyatga qodir yuqori malakali kadrlarni tayirlash; ko'plab vertikal bog'lanishlarning mavjudligi, ya'ni "universitet-tashkilotlar-resurslarni etkazib beruvchilar" hamda "universitet - ish beruvchi tashkilotlar". Xulosa qilib aytganda, hozirda Harakatlar strategiyasi doirasida olib borilayotgan barcha islohotlar inson

kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa nafaqat bizning mamlakatda balki jahonda ham so'nggi ikki, uch yilda umummilliy boylikning ajralmas qismi hisoblangan inson kapitali rivojiga e'tibor kuchaydi. Natijada inson kapitali tushunchasi ancha keng ma'noda, ya'ni iqtisodiy, jamiyat va uning boshlang'ich yacheykasi oilani intensiv rivojlantiruvchi, mehnat resurslarining bilimli qismi, haëti va mehnat faoliyati davomida intellektual boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan asosiy kuchga aylandi. Shu sababli ham bugungi kunda zamonaviy dunë taraqqiëtiining dinamikasi asosan insonning innovatsion, ijodiy faoliyati, fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Biz hamma narsa (yaxshi, deyarli hamma narsa) pul bilan bog'liq bo'lgan iste'molchilar dunyosida yashaymiz. Va moliyaviy bilimga ega bo'lmaslik har birimiz uchun, o'z biznesini rivojlantiradiganlar uchun ham (yoki boshqa birovning) ishi uchun ham, shaxsiy moliyani boshqarishda beparvo bo'lgan oddiy odam uchun ham qimmatga tushishi mumkin. Ishonchim komilki, hayotimiz darajasi har birimizning moliyaviy ma'lumotimizga bog'liq. Moliyaviy savodxonlikning asoslari, afsuski, na maktab o'quv dasturiga, na nodavlat ixtisoslikdagi ko'plab universitetlarning o'quv dasturlariga kiritilmagan. Garchi, men bolalarga bolaligidan moliyaviy bilim berish kerak deb hisoblayman. Va mening chuqur ishonamanki, moliyaviy savodsizlik bu aholining turmush darajasi pastligi va qashshoqligining sabablaridan biri. Qarang, Yevropaliklarning moliyaviy savodxonligi biznikidan ancha yuqori. Yaqinda Polshada, masalan, aholining qariyb 30 foizi pulni tejash dasturlaridan foydalanayotganini o'qidim, bizda esa.... Shunday qilib, qiyin moliyaviy ahvolga tushib qolish xavfini minimallashtirish uchun men shaxsni takomillashtirish uchun iqtisodiyot va moliyaviy savodxonlikning asosiy asoslarini olishni tavsiya etaman. Xo'sh, hamma uchun "majburiy" dastur nimani o'z ichiga oladi?

1. Pulga to'g'ri yondashish. Avvalo, yondashuvingizni, pulga bo'lgan munosabatingizni o'zgartirish muhimdir. Pulni iste'mol qilish vositasi sifatida emas, balki investitsiya nuqtai nazaridan ko'rish kerak. Biz pul qaramligidan xalos bo'lishga intilishimiz va bizni boshqaradigan pul emas, aksincha biz pulni boshqaruvchisi ekanligimizga ishonch hosil qilishimiz kerak.

2. Moliyani rejalashtirish va hisobga olish. Siz kichik narsadan boshlashingiz kerak, demak, o'zingizning shaxsiy byudjetingiz, so'ngra asta-sekin oilaviy byudjetni shakllantirishga o'ting, uy moliya hisobini yuriting. Shunday qilib, asosiy rejalashtirish va buxgalteriya hisobidan boshlab biz kelajakda yozuvlarni yuritishni o'zimizga dasturlashtiramiz, bu bizning hayotimiz darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi moliyaviy harakatlar to'g'risida xabardor bo'lishga, mavjud pullardan oqilona

foydalanishga, eng muhimi, mablag'ni tejashga va kelajakka sarmoya kiritish uchun kapital to'plashga imkon beradi.

3. Topganingizdan kamroq pul sarflang. Bizning oylik maoshimiz bilan bundan ham kamroq mablag 'sarflashga qarshi bo'lgan ko'plab e'tirozlar bo'lishi mumkin. Ammo moliyani to'g'ri rejalashtirish va hisobga olish bilan siz buni uddalaysiz. Oyiga oz miqdordagi mablag 'bir yil ichida katta bo'ladi.

4. Banklar bilan munosabatlar. Bank oldida siz faqat moliyaviy sherikni ko'rishingiz va u bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatishingiz kerak. Men depozitlar haqida gapiryapman. Depozit mablag'larni tejash va saqlash uchun ishonchli vosita hisoblanadi. Shuningdek, moliyaviy institutlarni tanlashga oqilona yondashishga harakat qiling. Moliya bozorlarida va xorijiy kapitalda ko'p yillik tajribaga ega ishonchli sheriklarni tanlang. Asosiy qoidani yodda tuting: pulingiz foydangiz uchun ishlashi kerak, o'lik holda yotmaslik kerak.

4. Passiv daromad. Biror kishi ikkita daromadga ega bo'lishi mumkin: faol - asosiy ish joyidan va passiv - bu uning sarmoyasi natijasidir. Turli xil daromadlar fors-major holatlarida yordam beradi, qo'shimcha kapital. Sarmoya kiritish, avvalambor, xavfni kamaytirish uchun barcha harakatlarni oldindan hisoblash va shu sababli zarur moliyaviy vositalarni bilish, tushunish va ulardan foydalanish zarur.

5. Moliya dunyosida harakat qiling. Treninglarda, seminarlarda qatnashing, tegishli adabiyotlarni o'qing. O'zingizga va rivojlanishingizga sarmoya kiring. Vaqt o'tishi bilan bu foizlar bilan to'lanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X. — Inson kapitali va mehnat bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, Toshkent, 2020.

2. Tojiev B.T. — Ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar, Toshkent, 2021.

3. Jo'raev M.M. — Ijtimoiy rivojlanish va kambag'allik darajasini qisqartirish muammolari, Samarqand, 2019.

4. Karimov I.A. — Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch, Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

5. Qodirov A.Q. — Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, Toshkent, 2022.

6. Rasulov S.S. — Ta'lim va iqtisodiyot: o'zaro bog'liqlik masalalari, Toshkent, 2020.

7. Yusupov A.A. — Kambag'allikni qisqartirishda bandlik siyosatining roli, Buxoro, 2021.

8. Axmedova D.N. — Ijtimoiy sohani modernizatsiya qilishda inson kapitalining oʻrni, Toshkent, 2018.

9. Mamajonov O.B. — Taʼlim tizimida raqamli texnologiyalar va ularning samaradorligi, Andijon, 2022.

10. Rajabov B.S. — Innovatsion iqtisodiyot va inson omili, Toshkent, 2020.

